

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

60910300– Pediatriya ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishining

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024 yil “_25_” _____ *iyun*_____ dagi __218__ - sonli buyrug‘i bilan

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadr buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish xuquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tagishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatining obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	7
3.	Amaliyotlarga qo‘yilgan talablar	9
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	9
	Bibliografik ma’lumotlar	14
	Kelishuv varag‘i	15

1. Umumiy tavsifi

60910300 - Pediatriya ishi ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi shaklda amalga oshiriladi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 6 yil.

1.1. Qo’llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo’llanilishi.

Malaka talabi 60910300- Pediatriya ishi ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta’lim yo’nalish bo’yicha malaka talablari, o’quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o’quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o’z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasaning boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv bo’limi boshlig’i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o’qituvchilari;

ta’lim yo’nalishining o’quv rejasi va o’quv dasturlarini o’zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o’qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otionalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Fan va sog’liqni saqlashga tegishli ta’lim yo’nalish bo’lib, sog’liqni saqlash tizimi muassasalarida, aholi o’rtasida sog’lom turmush tarzini targ’ibot qilish, bolalar va kattalar o’rtasidagi o’tkir va surunkali kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalishini oldini olish, yuqumli kasalliklarni oldini olish doirasida epidemiya va pandemiyaga qarshi chora - tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, kasalliklarni tashxislash va davolashning zamonaviy usullaridan keng foydalangan holda bemorlarning tibbiy muammolari bo’yicha asosiy vazifalarni hal qilish, sog’liqni saqlash tizimining birlamchi bo’g’inida tibbiy-ijtimoiy vazifalarni bajarish bo’yicha kompleks masalalarni yechishni o’z ichiga oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.

Davlat va nodavlat davolash-profilaktika muassasalari, sog’liqni saqlash sohasiga doir barcha tashkilot va muassasalar, jumladan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari (tuman markaziy ko’p tarmoqli poliklinikalar, oilaviy poliklinika va oilaviy shifokor punktlari) va b.

60910300- Pediatriya ishi ta’lim yo’nalishi bo’yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o’tgan taqdirda, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o’qitish bo’yicha pedagogik faoliyati bilan shug’ullanish huquqiga ega bo’ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot*
- *tibbiy-profilaktik;*
- *tashxislash va davolash;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *axborot-tahliliy.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60910300 - Pediatriya ishi ta’lim yo’nalishi bo’yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo’lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo’yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

sog’liqni saqlash sohasining barcha bo’g’inlari subyektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta’minlashga bag’ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o’rganish va tizimlashtirish;

tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta’minlash borasidagi muammoli mavzular bo’yicha iqtisodiy axborotlarni yig’ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

Tibbiy - profilaktik faoliyatida:

sog’lomlashtirish, sanitar-gigiyenik va profilaktik chora-tadbirlar kompleksini mustaqil tarzda ishlab chiqish, muvofiqlashtirishi va o’tkazishi;

sog’liqni saqlash tizimining birlamchi bo’g’inida birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

aholi va bemorlar orasida sog’lom turmush tarzi ko’nikmalarini shakllantirish, ularning jismoniy, tibbiy faolligini oshirishi, targ’ibot qilish;

tibbiy-profilaktika yo’nalishida qo’llanilayotgan ilg’or profilaktik tadbirlarni o’rganishi va amaliyotga tatbiq etishi;

tibbiy-profilaktika yo’nalishida profilaktik chora-tadbirlarini tashkillashtirish bo’yicha to’liq hajmdagi zaruriy ko’nikmalarga ega bo’lgan yuqori malakali mutaxassis sifatida mustaqil amaliy faoliyatni amalga oshirishni egallash va baholash qobiliyatlariga ega bo’lishi lozim.

Tashxislash va davolash faoliyatida:

bolalar va katta yoshdagi bemorlar salomatligini saqlash va mustahkamlashda, shu jumladan sog‘lom turmush tarzini shakllanirishda, kasalliklar paydo bo‘lishi va (yoki) tarqalishining oldini olishda, ularni erta tashxislashga, sabablari va sharoitlarini aniqlashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, shuningdek atrof-muhit omillarining bolalar va kattalar sog‘lig‘iga zararli ta’sirini bartaraf etishga tayyor bo‘lishi;

profilaktik tibbiy ko‘riklarni o‘tkazish, tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, sog‘lom bolalar va kattalar surunkali kasalliklarga chalingan bemorlarni dispanser kuzatuvidan o‘tkazishga tayyor bo‘lishi;

zamonaviy tashhislash usullaridan foydalanish;

bemorlarni ko‘rsatmaga ko‘ra tor mutaxassislar bilan birgalikda olib borish va davolash;

epidemiya qarshi tadbirlarni o‘tkazish, radiatsiya holati yomolashgan, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlarda, o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar markazlarida aholini himoya qilishni tashkil etishi;

bolalar va kattalar salomatligi ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash va tibbiy-statistik tahlil qilish uchun ijtimoiy va gigiyenik usullardan foydalanishi;

holatni aniqlash yoki kasallikning mavjudligi yoki yo‘qligini aniqlash uchun bemorlarning shikoyatlarini, anamnezidagi ma’lumotlarni, tekshiruv natijalarini, laboratoriya, instrumental, patologik va boshqa tadqiqotlarni yig‘ish va tahlil qilishi;

bemorlarda Xalqaro statistik tasnifi (43-Jahon sog‘liqni saqlash assambleyasi tomonidan qabul qilingan, X-qayta ko‘rish, Jeneva, 1989) va tegishli sog‘liq muammolariga muvofiq asosiy patologik holatlarni, kasallik belgilarini, sindromlarini, nozologik shakllarini aniqlashi;

shoshilinch tibbiy aralashuvni talab qiladigan sharoitda bo‘lgan bemorlarga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishda ishtirok etishi;

fiziologik homiladorlikni tug‘ruq jarayonini o‘tkazishi;

o‘z faoliyatida dalillarga asoslangan tibbiyot standartlaridan foydalanish.

favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko‘rsatishda, shu jumladan tibbiy evakuatsiya qilishda ishtirok etishi;

tibbiy rehabilitatsiya va sanitor-kurort davolanishga muhtoj bemorlarda tabiiy davolovchi omillar, dori-darmon, dorivor bo‘lmagan terapiya va boshqa usullardan foydalanish zarurligini aniqlashi.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari (tuman markaziy ko‘p tarmoqli poliklinikalar, oilaviy poliklinika va oilaviy shifokor punktlari) bo‘lim mudirlari, bosh vrachlari yordamchilari, tuman va shahar markaziy shifoxonalarida bosh shifokor birinchi o‘rinbosalarining yordamchilari;

shoshilinch tez tibbiy yordam ilmiy-amaliy markazi, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi hamda ularning hududiy filiallari bosh shifokor o‘rinbosarlari yordamchilari;

sog‘liqni saqlashda birlamchi bo‘g‘in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlari natijalarini baholash;

kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbiiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo’lishi mumkin bo’lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish.

ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo’llash, investiyon loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo’yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablar

keng dunyoqarashga, zamonaviy hamda tizimli bilimlarga ega bo’lishi;

sog’lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to’g’risida ilmiy tassavvur hamda e’tiqodga, o’zini jismoniy chiniqtirish o’quv va ko’nikmalariga ega bo’lishi lozim.

gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

ma’naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o’z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g’oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo’lishi;

tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo’lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o’z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

axborot yig’ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo’lishi, o’z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

tegishli bakalavriat yo’nalishi bo’yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo’lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o’z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi lozim;

ta’lim yo’nalishi bo’yicha oliy ma’lumotli shaxslar egallashi lozim bo’lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;

tegishli bakalavriat ta’lim yo’nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo’yicha magistraturada oliy ta’limni davom ettirishga;

kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo’shimcha kasb ta’limi olish uchun tayyorlanadilar;

kasbiy faoliyatida axloqiy va deontologik tamoyillarni amalga oshirishni bilish; tibbiy hujjatlarni yuritish qoidalarini bilish;

kasbiy muammolarni hal etish uchun inson organizmidagi morfofunktsional, fiziologik holatlarni va patologik jarayonlarni baholashni bilish;

tibbiy yordam ko’rsatishda ko’zda tutilgan tibbiy asbob-uskunalardan foydalanish ko’nikmalariga ega bo’lishi va fuqarolarning sog’lig’ini muhofaza qilishga qaratilgan yangi usul va uslublarni amalga oshirishda ishtirok etish.

bolalar va katta yoshdagi bemorlar salomatligini saqlash va mustahkamlashda, shu jumladan sog’lom turmush tarzini shakllanirishda, kasalliklar paydo bo’lishi va

(yoki) tarqalishining oldini olishda, ularni erta tashxislashga, sabablari va sharoitlarini aniqlashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularning paydo bo’lishi va rivojlanishi, shuningdek atrof-muhit omillarining bolalar va kattalar sog’lig’iga zararli ta’sirini bartaraf etishga tayyor bo’lish;

profilaktik tibbiy ko’riklarni o’tkazish, tibbiy ko’rikdan o’tkazish, sog’lom bolalar va kattalar surunkali kasalliklarga chalingan bemorlarni dispanser kuzatuvidan o’tkazishga tayyor bo’lish va epidemiyaga qarshi tadbirlarni o’tkazish, radiatsiya holati yomolashgan, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlarda, o’ta xavfli yuqumli kasalliklar markazlarida aholini himoya qilishni tashkil etish;

bolalar va kattalar salomatligi ko’rsatkichlari to’g’risidagi ma’lumotlarni to’plash va tibbiy-statistik tahlil qilish uchun ijtimoiy va gigiyenik usullardan foydalanish;

bemorlarda Xalqaro statistik tasnifi (43-Jahon sog’liqni saqlash assambleyasi tomonidan qabul qilingan, X-qayta ko’rish, Jeneva, 1989) va tegishli sog’liq muammolariga muvofiq asosiy patologik holatlarni, kasallik belgilarini, sindromlarini, nozologik shakllarini aniqlash; vaqtincha mehnatga layoqatsizlik tekshiruvini o’tkazishda, tibbiy-ijtimoiy ekspertizani o’tkazishda ishtirok etish, odamning biologik o’limini aniqlash;

turli nozologik shakllari bo’lgan bemorlarni boshqarish taktikasini aniqlash, ambulatoriya sharoitida va kunduzgi statsionarda turli nozologik shakllari bo’lgan bemorlarni boshqarish va davolash;

shoshilinch tibbiy aralashuvni talab qiladigan sharoitda bo’lgan bemorlarga shoshilinch tibbiy yordam ko’rsatishda ishtirok etish va favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko’rsatishda, shu jumladan tibbiy evakuatsiya qilishda ishtirok etish;

fiziologik homiladorlikni tug’ruq jarayonini o’tkazish;

tibbiy rehabilitatsiya va sanitor-kurort davolanishga muhtoj bemorlarda tabiiy davolovchi omillar, dori-darmon, dorivor bo’lmagan terapiya va boshqa usullardan foydalanish zarurligini aniqlash;

bolalar va ularning ota-onalariga (qonuniy vakillariga), kattalarga sog’liqni saqlashning asosiy gigiyenik tadbirlarini, sog’liqni saqlash va mustahkamlashga, kasallikning oldini olishga hissa qo’shadigan asosiy fiziologik ko’rsatkichlarni o’z-o’zini boshqarish ko’nikmalarini o’rgatish;

tibbiy ma’lumotlarni tahlil qilish va ommaviy dalillarga asoslangan tibbiyotga asoslangan ravishda namoyish etish;

ilmiy-tadqiqotlarda ishtirok etish;

fuqarolarning sog’lig’ini muhofaza qilishga qaratilgan yangi usul va uslublarni amalga oshirishda ishtirok etish.

3. Amaliy otlarga qo’yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg’unlashtirish, tegishli amaliy ko’nikmalar, kompetensiyalar va malakalami shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim yo’nalishi bo’yicha quyidagi amaliyotlar o’tkaziladi:

1. O’quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamani ng hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semes tri
1.00		Majburiy fanlar	9450	315	
1.01	O‘T1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	FS1204	Falsafa	120	4	2
1.03	D1404	Dinshunoslik	120	4	4
1.04	O‘(R)T.TXT11208	O‘zbek (rus) tili. Tibbiyotda xorijiy til	240	8	1-2
1.05	OAN11-312	Odam anatomiya	360	12	1-3
1.06	TBUG1106	Tibbiy biologiya. Umumiy genetika	180	6	1
1.07	TK1206	Tibbiy kimyo	180	6	2
1.08	LTTT1104	Lotin tili va tibbiy terminologiya	120	4	2
1.09	TBF.TAT1106	Tibbiy va biologik fizika. Tibbiyotda axborot texnologiyalari	180	6	1
1.10	Ps1304	Psixologiya.	120	4	3
1.11	GSEM12-307	Gistologiya, sitologiya, embriologiya	210	7	2-3
1.12	NFZ12-307	Normal fiziologiya	210	7	2-3
1.13	BK13-408	Biokimyo	240	8	3-4
1.14	MVI13-406	Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya	180	6	3-4
1.15	KA14-504	Klinik anatomiya (OXTA)	120	4	4-5
1.16	PA14-506	Patologik anatomiya	180	6	4-5
1.17	PF14-507	Patologik fiziologiya	210	7	4-5
1.18	FR14-506	Farmakologiya	180	6	4-5
1.19	GXGTE15 04	Gigiena, harbiy gigiena. Tibbiy ekologiya	120	4	5
1.20	JSMM1705	Jamoat salomatligi. Marketing, menejment.	150	5	7
1.21	TKK1204	Tibbiyot kasbiga kirish 1,2	120	4	2
1.22	BKP14-508	Bolalar kasalliklari propedevtikasi	240	8	4-5
1.23	P16-1018	Pediatriya	540	18	6-10
1.24	N11004	Neonatologiya	120	4	10
1.25	ShP1904	Shoshilinch pediatriya	120	4	9
1.26	IKP14-506	Ichki kasalliklar propedevtikasi 1,2	180	6	4-5
1.27	IKKKXDT16-1012	Ichki kasalliklar. Kasb kasalliklari.XDT	360	12	6-10
1.28	KAI11204	Klinik allergologiya, immunologiya	120	4	12
1.29	TR16-706	Tibbiy radiologiya	180	6	6-7
1.30	DVBDV16-706	Dermatovenerologiya va bolalar dermatovenerologiyasi	180	6	6-7
1.31	EBE1805	Endokrinologiya, Bolalar endokrinologiyasi	150	5	8
1.32	F11004	Ftiziatriya	120	4	10

1.33	NBNTG1391006	Nevrologiya. Bolalar nevrologiya-si. Tibbiy genetika	240	8	6,9-10
1.34	PNBPTP161006	Psixiatriya, narkologiya. Bolalar psixiatriyasi. Tibbiy Psixologiya	180	6	6,10
1.35	STVFXA1704	Sud tibbiyoti. Vrach faoliyatining huquqiy asoslari	120	4	7
1.36	YKBYKE1791010	Yuqumli kasalliklar. Bolalar yuqumli kasalliklari. Epidemiologiya.	300	10	7,9-10
1.37	KF11104	Klinik farmakologiya	120	4	11
1.38	UX15-606	Umumiy xirurgiya	180	6	5-6
1.39	BX181008	Bolalar xirurgiyasi	240	8	8,9
1.40	XK1704	Xirurgik kasalliklar.	120	4	7
1.41	AGBK191208	Akusherlik va ginekologiya. Bolalar ginekologiyasi	240	8	9,12
1.42	TOBTONBN18-1106	Travmatologiya va ortopediya. Bolalar travmatologiya va ortopediyasi. Neyroxirurgiya, bolalar neyroxirurgiyasi	180	6	8,10
1.43	OBOBS181108	Otorinolaringologiya, bolalar otorinolaringologiyasi. Bolalar stomatologiyasi	240	8	8,11
1.44	OBO1804	Oftalmologiya, bolalar oftalmologiyasi	120	4	8
1.45	ARBAR1904	Anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi	120	4	9
1.46	OBOG161106	Onkologiya, bolalar onkologiyasi. Gematologiya.	180	6	6,11
1.47	TTYo11104	Tez tibbiy yordam	120	4	11
1.48	RST11204	Reabilitologiya, sport tibbiyoti.	120	4	12
1.49	OSHAG11204	Oilaviy shifokorlik akusherlik va ginekologiya	120	4	12
1.50	OSHX11104	Oilaviy shifokorlik xirurgiya	120	4	11
1.51	OSHT1111206	Oilaviy shifokorlik terapiya	180	6	11-12
1.52	OSHP1111208	Oilaviy shifokorlik pediatriya	240	8	11-12
2.00		Tanlov fanlar	540	18	
2.00		<i>Tanlov fanlar (7 ta fan)</i>	540	18	3,5,6,11,12
		Jami	9990	333	
		Malakaviy amaliyot	810	27	1-11
		Yakuniy davlat attestatsiyasi			
		Jami	810	27	
		HAMMASI	10800	360	

*klinik fan (sikl)lar 3 kurs 6 semestr dan boshlanadigan tibbiyot oliy ta’lim muassasalari uchun

4. Fanlar katalogining tuzilishi*:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00	MF1	Majburiy fanlar	9390	313	
1.01	O‘T1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	FS1204	Falsafa	120	4	2
1.03	D1404	Dinshunoslik	120	4	4
1.04	O‘RTTXX11-208	O‘zbek (rus) tili. Tibbiyotda xorijiy til	240	8	1,2
1.05	OAN11-312	Odam anatomiyasi	360	12	1,2,3
1.06	TBUG1106	Tibbiy biologiya. Umumiy genetika	180	6	1
1.07	TK1106	Tibbiy kimyo	180	6	1
1.08	LTTT1204	Lotin tili va tibbiy terminologiya	120	4	2
1.09	TBFTAT11-208	Tibbiy va biologik fizika. Tibbiyotda axborot texnologiyalari	240	8	1,2
1.10	Ps1304	Psixologiya	120	4	3
1.11	GSEM12-308	Gistologiya, sitologiya, embriologiya	240	8	2,3
1.12	NFZ13-408	Normal fiziologiya	240	8	3,4
1.13	BK13-408	Biokimyo	240	8	3,4
1.14	MVII3-408	Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya	240	8	3,4
1.15	KA1504	Klinik anatomiya (Operativ jarroxlilik va topografik anatomiya)	120	4	5
1.16	PAN15-606	Patologik anatomiya	180	6	5,6
1.17	PFZ15-607	Patologik fiziologiya	210	7	5,6
1.18	FR15-606	Farmakologiya	180	6	5,6
1.19	GXGTE1406	Gigiyena, harbiy gigiyena. Tibbiy ekologiya	180	6	4
1.20	JSM1606	Jamoat salomatligi. Marketing, menejment	180	6	6
1.21	TKK1204	Tibbiyot kasbiga kirish	120	4	2
1.22	BKP15-608	Bolalar kasalliklari propedevtikasi	240	8	5,6
1.23	P17-1018	Pediatriya	540	18	7,8,9,10
1.24	N11004	Neonatologiya	120	4	10
1.25	ShP11104	Shoshilinch pediatriya	120	4	11
1.26	IKP15-606	Ichki kasalliklar propedevtikasi	180	6	5,6
1.27	IK17-911	Ichki kasalliklar	330	11	7,8,9
1.28	KAI11203	Klinik allergologiya, immunologiya	90	3	12
1.29	TR1806	Tibbiy radiologiya	180	6	8
1.30	DVBDV1704	Dermatovenerologiya va bolalar dermatovenerologiyasi	120	4	7
1.31	EBE1805	Endokrinologiya, bolalar endokrinologiyasi	150	5	8
1.32	F1704	Ftiziatriya	120	4	7
1.33	NBNTG11006	Nevrologiya. Bolalar nevrologiyasi, tibbiy genetika	180	6	10
1.34	PNBPTP110	Psixiatriya, narkologiya. Bolalar	180	6	10

	06	psixiatriyasi. Tibbiy psixologiya			
1.35	STVFXA170 4	Sud tibbiyoti. Vrach faoliyatining huquqiy asoslari	120	4	7
1.36	YKBYK EP18-1010	Yuqumli kasalliklar. Bolalar yuqumli kasalliklari. Epidemiologiya	300	10	8,9,10
1.37	KF11204	Klinik farmakologiya	120	4	12
1.38	UX15-606	Umumiy xirurgiya	180	6	5,6
1.39	BX17-1008	Bolalar xirurgiyasi	240	8	7,10
1.40	XK1704	Xirurgik kasalliklar	120	4	7
1.41	AGBK1904	Akusherlik va ginekologiya. Bolalar ginekologiyasi	120	4	9
1.42	TOBTO NBN18-906	Travmatologiya va ortopediya, HDJ. Bolalar travmatologiyasi va ortopediyasi. Neyroxirurgiya, bolalar neyroxirurgiyasi	180	6	8,9
1.43	OBOBS19- 1106	Otorinolingologiya, bolalar otorinolingologiyasi. Bolalar stomatologiyasi	180	6	9,11
1.44	OBO1904	Oftalmologiya, bolalar oftalmologiyasi	120	4	9
1.45	ARBAR1904	Anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi	120	4	9
1.46	OBOG11106	Onkologiya, bolalar onkologiyasi. Gematologiya, HDT	180	6	11
1.47	TTYo11204	Tez tibbiy yordam	120	4	12
1.48	RST11104	Reabilitologiya. Sport tibbiyoti	120	4	11
1.49	OSHAG1120 4	Oilaviy shifokorlikda akusherlik va ginekologiya	120	4	12
1.50	OSHX11104	Oilaviy shifokorlikda xirurgiya	120	4	11
1.51	OSHT111- 1207	Oilaviy shifokorlikda terapiya. Kasb kasalliklari	210	7	11,12
1.52	OSHP111- 1208	Oilaviy shifokorlikda pediatriya	240	8	11,12
2.00	TF2	Tanlov fanlar	600	20	
2.00		<i>Tanlov fanlar (7 ta fan)</i>	600	20	3-4-5-6-12
JAMI			9990	333	
	MM1-627	Malakaviy amaliyot	810	27	1,2,3, 4,5,6, 8,9, 10,11
	BAKYDA60 4	Birlamchi akkreditatsiya bilan yakuniy davlat attestatsiyasi			
JAMI			810	27	
HAMMAS			10800	360	

* Klinik fan (sikl)lar 4 kurs 7 semestrndan boshlanadigan tibbiyot oliy ta’lim muassasalari uchun

Kvalifikatsiya: Umumiy pediatr shifokori

Bibliografik ma’lumotlar

UDK: 002-651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so‘zlar:

Pediatriya ishi, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta’lim yo‘nalishi, kasbiy faoliyat ob’ekti, kasbiy faoliyat soxasi, bakalavrning asosiy ta’lim dasturi (bakalavr dasturi), sog‘liqni saqlash tizimi, klinika, laboratoriya, amaliy ko‘nikmalar, mustaqil ta’lim, oliy ta’lim muassasasi, ta’lim jarayoni, kasallik, davolash muassasalari, profilaktika, diagnostika, etiologiya, patogenez, morfologiya, davolash usullari.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh tibbiyot oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

Tashkent pediatriya tibbiyot instituti,
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari
rektorlar rayosati raisi

Rektor  B.T. Daminov


2024 yil « 10 » 06

M.O'.




KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi xuzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlariva ilg'or texnologiyalarni tadbiq etish markazi

Direktor  M. Baltabayev

2024 yil « 18 » 06

M.O'



Toshkent tibbiyot akademiyasi,
"Sog'liqni saqlash" ta'lim sohasi bo'yicha muvofiqlashtiruvchi soha Kengashi raisi, O'quv ishlari bo'yicha prorektor

 Sh.A. Boymuradov

2024-yil « 12 » 06

M.O'



O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Ilm-fan, ta'lim boshqarmasi


Boshqarma boshlig'i  O'.S. Ismailov

2024 yil « 13 » 06

M.O'.



O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazir o'rinbosari, Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Kuzatuv kengashi raisi

 A.V. Alimov

2024 yil « 13 » 06

M.O'.

